



Xorijiy tadqiqotlarda shaxs kreativligini rivojlantirish muammosi

Yo'ldosheva Dilduzaxon Alisher qizi –

Farg'ona davlat universiteti

“Pedagogika” kafedrası kata o'qituvchisi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

E-mail: dilfuzayuldasheva876@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0001-5430-1050>

Annotatsiya. Kreativlik-shaxsni o'qitish va tarbiyalash, ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishni o'z ichiga olgan murakkab jarayondir. Pedagogik-psixologik xorijiy tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida kreativning o'ziga xos xususiyatlari hamda muvaffaqiyatli mutaxassis bo'lish va kasbiy faoliyatda yuqori natijalarga erishishi mumkinligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: kreativlik, intellektual, originallik, kreativ shaxs, kreativ muhit, divergent tafakkur, kreativ kompetentlik.

Проблема развития личности творчества в зарубежном обучении

Аннотация. Творчество – это сложный процесс, включающий в себя образование и воспитание человека, формирование и развитие его личностных и профессиональных качеств. На основе изучения и анализа зарубежных педагогических и психологических исследований было установлено, что специфические характеристики творчества также могут способствовать становлению успешным специалистом и достижению высоких результатов в профессиональной деятельности.

Ключевые слова: креативность, интеллектуальность, оригинальность, творческая личность, творческая среда, дивергентное мышление, творческая компетентность.

The problem of developing personal creativity in foreign studies

Annotation. *This article provides a scientific analysis of the theoretical foundations of speech disorders. The psychological, pedagogical, and linguistic factors influencing the emergence of speech development disorders are examined, along with their causes and classification. The impact of phonetic-phonemic and lexical-grammatical disorders, as well as general speech underdevelopment, on children's cognitive processes, communicative activity, and social adaptation is analyzed. In addition, theoretical approaches and scientific perspectives used in the study of speech disorders are summarized, and their significance in the practice of special pedagogy and speech therapy is substantiated. The article serves as a theoretical and scientific resource for researchers, educators, and speech therapy specialists dealing with issues of speech development.*

Keywords: *special pedagogy, oral speech, logopedics, logorhythmics, communication development, correctional techniques.*

KIRISH

Jahonda fan va taʼlimning ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuv jarayoni jadal kechayotgan bir davrda “tajriba asosida taʼlim olish” (Experimental learning) gʻoyasi jahon hamjamiyati axborot-taʼlim muhitida ustuvorligi jihatidan eʼtirof etilmoqda. Bu holat oliy taʼlim muassasalarida bilim olayotgan talabalarda fanlar boʻyicha koʻnikma va malakalarni oʻzlashtirishni, shuning bilan birga ularda shaxsiy va kasbiy sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida butun dunyoda, shu jumladan, mamlakatimiz hayotida kechayotgan ijtimoiy-madaniy ishlab chiqarish amaliyoti uchun mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi, uzluksiz taʼlim tizimini “umr davomida taʼlim olish” (Lifelong learning) konsepsiyasi asosida tashkil etishni talab etmoqda. Fan va texnologiya natijalarining ishlab chiqarish amaliyotiga joriy etilishi, isteʼmolchilar xohish-istaklarining ortishi, taʼlimning axborotlashuvi, insoniyat hayot sifatining ortib borishi soha mutaxassislaridan kasbiy faoliyatiga kreativ tarzda yondashishni talab etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali xalqaro model va dasturlar bilan birga koʻplab xorijiy olimlarning tadqiqot ishlari ushbu kompetensiyani rivojlantirishda nazariy-metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Kreativlik yoʻnalishidagi xorijiy tadqiqotlarga S.Kaplan, J.Rezulli, R.Sternberg, A.Tannenbaun, J.Feldhyuzen, K.Xeller va boshqalarning asarlari kiradi.

Teylorning yozishicha, XX asrning 60-yillaridayoq kreativlikning oltmishta taʼrifi keltirilgan boʻlib, ular besh turga boʻlingan:

1) geshtaltik, bu avvaldan mavjud geshtaltni yoʻq qilish orqali undan koʻra yanada yaxshiroqʻini yaratish sifatida kreativlik jarayoni deb taʼriflanadi;

2) innovatsion, bu kreativlikni oxirgi mahsulotning eng yangiligi jihatidan baholashni nazarda tutuvchi, yaʼniki yangilik, gʻoya yoki mahsulot ishlab chiqariladigan har qanday jarayon, shu jumladan, eski elementlarni yangi tizimga aylantirish;

3) estetik yoki ekspressiv, kreativ shaxsning oʻzini namoyon qilishiga urgʻu beradigan – har bir inson estetik jihatdan oʻziga xos boʻlgan usulda oʻzini namoyon qilishi bilan ifodalanadi;

4) psixoanalitik yoki dinamik kreativlik shakllari: doimiy o'zaro ta'sirda bo'luvchi o'zgaruvchan shaxslar – “ratsio”, va “id” hamda “ego” va “super- ego”ning o'zaro ta'siri;

5) muammoli – kreativlikni bir qator muammolarni hal qilish jarayonlari orqali tavsiflaydi, bunda asosiy narsa fikrlash jarayonining o'zi va yangilikni shakllantirish zaruratining paydo bo'lishi sifatida tushuniladi [1].

“Ijodkorlik” tushunchasi “kreativlik” bilan bir nuqtada tutashadi. Agar ijodkorlik muayyan individual xususiyatlarga ega bo'lgan va yangi narsalarni yaratish jarayoni sifatida tushunilsa, kreativlik insonning salohiyati, ichki resursi, uning stereotipik fikrlash usullaridan voz kechish, muammolarni hal qilishning yangi variantlarini kashf qilish qobiliyati sifatida qaraladi. Shuningdek, kreativlikni insonning konstruktiv, nostandart fikrlash va xulq-atvor qobiliyati, o'z tajribasini anglash va rivojlantirishga intilish sifatida ham tavsiflash mumkin. “Ijodkorlik” va “kreativlik” ma'no jihatidan farqlanadi. Ijodiy jarayon muallifning ilhomiga, uning qobiliyatiga, muallif amal qiladigan an'analarga asoslanadi. Kreativlik jarayoni haqida aytish mumkinki, uning asosiy tarkibiy qismi pragmatik element, ya'ni biror narsani nima uchun, nima maqsadda va qanday qilib yaratish kerakligi, o'zi nimani yaratish kerakligini avvaldan tushunish bo'ladi. Hozirgi vaqtda kreativlikni kompleks tadqiq qilish katta ahamiyatga ega.

L.Ackoff va E.Vergaraning tadqiqotlarida kreativlikning mohiyatini aniqlashga qaratilgan yondashuvlarning ikki guruhi ajratiladi [2]: manbani qidirishga yo'naltirilgan yondashuvlar va jarayonga yo'naltirilgan yondashuvlar.

Birinchi guruhga psixologiyadagi quyidagi asosiy yo'nalishlarni kiritish mumkin:

Psixoanalitik yo'nalish tarafdorlarining ta'kidlashicha, ijod shaxsdagi ichki nizolar natijasidir (E.Kris, L.Kubi). Kreativlik esa “Egoga xizmat qiluvchi regressiya” (E.Kris) deb tushunilgan [3].

Gumanistik yo'nalish vakillari ijod shaxsda ichki nizolar bo'lmaganda yuzaga keladi, deb hisoblashadi. Kreativ jarayon – bu ichki va tashqi to'siqlarni bartaraf etgan holda tabiiy kreativ salohiyatni ro'yobga chiqarish. Gumanistik psixologlarning (A.Maslou, K.Rojers, V.Satir va boshqalar) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, o'zini namoyon qilishga ehtiyoj inson ehtiyojining asosi hisoblanadi [4].

K.Rojers (1994) kreativlikni muammolarni yechishning yangi usullari va ularni ifodalashning yangi usullarini kashf etish qobiliyati deb tushunadi. K.Rojers shunday yozadi: “Inson – bu uning kim ekanligi emas, balki kim bo'lishi mumkinligi. Shaxsning rivojlanish manbai o'zidir” [5]. Ushbu g'oyalarga amal qilgan, bolaga rivojlanish jarayonida yordam beradigan, “o'sishning mashaqqatli ishini” osonlashtiradigan o'qituvchini K.Rojers fasilitator (yordamchi, qo'llab-quvvatlovchi) deb ataydi. Uning fikricha, tarbiyada gumanistik yondashuvni amalga oshirish ko'p jihatdan kattalarning o'z hokimiyatini baham ko'rishga tayyorligiga bog'liq

Psixometrik yo'nalish vakillari (J.Gilford, E.Torrens va boshqalar) shaxsning tabiiy kreativ salohiyati genetikaga bog'liq va standart testlar bilan o'lchanishi mumkin, deb hisoblashadi. “Kreativlik” atamasi qobiliyatning maxsus turi sifatida J.Gilford tomonidan 1963-yilda kiritilgan. E.Torrens ta'rifiga ko'ra, “kreativlik keng ma'noda original g'oyalarni yaratish va intellektual faoliyatning nostandart usullaridan foydalanish qobiliyati bo'lsa, tor ma'noda divergent qobiliyatlarni anglatadi. Kreativlik – axborotdagi bo'shliqlarni aniqlash, g'oya va farazlarni shakllantirish, ularni tekshirish va o'zgartirish jarayonidir” [6].

Xorijiy mualliflar (P.Muni, K.Teylor va boshqalar) haqli ravishda kreativlik muammosida to'rt jihatni ajratib ko'rsatadilar:

1) kreativlik jarayoni (qobiliyat sifatida) (X.Geyvin, A.Kroppli, S.Messik, R.Stenberg, P.Torrens, T.Tardif, G.Foster, K.Jung va boshqalar);

2) kreativ shaxs faoliyatining kreativ mahsuli (F Barron, P.Jekson, S.Messik, K.Teylor, D.Xarrington va boshqalar);

3) kreativ jarayonni amalga oshiruvchi kreativ shaxs (L.Binsvanger, E.De Bono, K.Koks, V.Mak-Dugal, K.Rojers, E.Rou va b.);

4) kreativlikni rivojlantiruvchi kreativ muhit (R.Dits, A.Maslou va boshqalar).

Kreativlik qobiliyatlari va intellekt o'rtasidagi nisbatni tushunishda bir nechta yondashuvlar mavjud:

1. Shaxsiy fazilatlar tizimi sifatida, ya'ni ijodkorlik qobiliyatlari mavjud emas. Kreativ xulq-atvor va kreativ faoliyatni belgilashda motivatsiyalar, qadriyatlar, shaxsiy sifatlar asosiy rol o'ynaydi (A.Maslou, A.Olok, A.Tannenbaum va boshqalar).

2. Intellektual sohaning tavsifi sifatida. Kreativlik qobiliyati aql-zakovatga bog'liq (K.Koks, L.Termen va b.).

3. An'anaviy ma'nodagi aql-zakovatga bog'liq bo'lmagan tafakkurning mustaqil xususiyati sifatida (J.Gilford, G.Gruber, K.Teylor va boshqalar).

Ushbu yondashuvning yengil varianti E.Torrensning "Intellektual ostona nazariyaning debochasi"dir: IQ 115-120 dan past bo'lganida aql-zakovat va kreativlik yagona omilni tashkil qiladi, IQ 120 dan yuqori bo'lsa, kreativlik mustaqil qiymatga aylanadi, ya'ni past intellektli kreativ shaxslar yo'q, lekin kreativligi past intellektuallar bor.

J.Gilford o'z xodimlari bilan gipotetik tarzda kreativlikni tavsiflovchi o'n oltita intellektual qobiliyatni aniqladi. Ular orasida:

- semantik moslashuvchanlik (obyektning asosiy xususiyatini aniqlay olish va undan foydalanishning yangi usulini taklif qilish qobiliyati);

- obrazli adaptiv moslashuvchanlik (stimul shaklini unda yangi belgilar va foydalanish imkoniyatlarini ko'ra biladigan darajada o'zgartirish qobiliyati);

- semantik to'satdan moslashuvchanlik (tartibga solinmagan vaziyatda turli xil g'oyalarni ishlab chiqish qobiliyati);

- originallik (bir-biriga o'xshash bo'lmagan assotsiatsiyalar, g'ayrioddiy javoblar yaratish qobiliyati);

- qiziquvchanlik (dunyodagi muammolarga sezuvchanlik);

- gipotezani ishlab chiqish qobiliyati;

- bog'liqsizlik (reaksiyaning stimuldan mantiqiy mustaqilligi);

- fantastiklik (stimul va reaksiya o'rtasida mantiqiy bog'liqlik mavjud bo'lganda javobning voqelikdan to'la uzilganligi) [7].

J.Gilford bu qobiliyatlarni divergent tafakkur nomi ostida birlashtirib, u muammo hali aniqlanmagan, shakllantirilmagan bo'lganda va oldindan belgilab qo'yilgan yechim usuli bo'lmaganida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi (muammoning oldindan ma'lum bo'lgan yechimiga qaratilgan konvergent fikrlashdan farq qiladi).

J.Gilford kreativlikning oltita muhim jihatiga to'xtalib o'tgan:

- mavjud muammolarni aniqlash va ularning mohiyatan anglash qobiliyati;

- "fikrning ravonligi" (chegaralangan qisqa vaqt oralig'ida yuzaga keladigan g'oyalar hisobi);

- originallik (umumiy tarzda qabul qilingan fikr va qarashlardan farqlanuvchi g'oyalarni ishlab chiqish, nostandart javob berish qobiliyati);

- moslashuvchanlik – turli adaptiv g'oya va fikrlarni yaratish qobiliyati;

- detallarni qo'shish orqali ma'lum obyektни yaxshilash qobiliyati;

- yuzaga kelgan muammolarni hal qilish qobiliyati, tahlil qilish va ajrata olish qobiliyati [8].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Dunyodagi ko'p mamlakatlar (AQSh, Angliya, Polsha, Xitoy va boshqalar) olimlari ta'lim faoliyati sharoitida shaxsning kreativ kompetentligini rivojlantirish yo'llarini o'rganmoqdalar.

Oliy ta'lim dasturlari doirasida fundamental bilimlar berishdan tashqari talabalarning kreativ, innovatsion salohiyatini namoyon etishi uchun sharoit yaratadigan dasturlarga

alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday dasturlar Renselayer politexnika universiteti, Stenford universiteti (AQSh), Gonkong universiteti (Xitoy), Varshava universiteti (Polsha) kabi xorijiy universitetlarda to'liq amalga oshirilmoqda.

Jahon ilmiy hamjamiyati tomonidan qo'llab-quvvatlangan kreativlikni rivojlantirish muammosi haligacha joylardagi o'qituvchilar uchun muhim vazifaga aylangani yo'q. Yu.Pluser va R.Begetto kreativlikni rivojlantirish muammosi haqida uni o'qituvchilar va maktab psixologlari tomonidan jiddiy qabul qilinishiga to'sqinlik qiluvchi bir qancha miflarni shakllantirish orqali zamonaviy pedagogikaga xos vaziyatni asoslashga harakat qildilar [9].

Tadqiqotchi T.Lyubartning qayd etishicha, "kreativlik" tushunchasi ijod jarayonida olingan yangi natijalar bilan tajriba o'tkazishni taqozo etadi. Uning fikricha, "kreativlik – bu mavzu doirasida yangi natijalar yaratish qobiliyatidir. Bu natijalar allaqachon mavjud bo'lgan narsalarni takrorlamasligi jihatidan yangi bo'lishi kerak" [10].

D.Leonard va V.Svep bildirgan ta'rifga binoan, "kreativlik foydali bo'lishi mumkin bo'lgan yangi g'oyalarni shakllantirish va ifodalash jarayoni bo'lib, kreativlik iste'dod emas, shuning uchun uni maqsadga yo'naltirilgan jarayon deb hisoblash mumkin va uni tashkil etish uchun individual qobiliyat, tajriba va malakani maksimal darajada oshirish imkonini beruvchi yondashuv zarur bo'ladi" [11].

Kreativlik sohasida qiziqarli tadqiqot natijalari ikki guruh osiyolik olimlar tomonidan olingan. Ular amerikalik va osiyolik talabalarning kreativlikni idrok etishlarida madaniyatlararo farqlarni aniqladilar. Masalan, "kreativlikni o'rganayotganda amerikalik talabalar moslashuvchanlik (turli g'oyalarni o'zgartirish, ular bilan moslashuvchan ishlash qobiliyati) bo'yicha o'zlarining ustunligini ko'rsatsa, osiyolik talabalar g'oyalarni takomillashtirish va murakkablashtirishda ustunlik qiladilar".

M.Kirton kreativlikni qarorlar qabul qilishdagi adaptiv afzalliklardan tortib, muammolarni hal qilishning innovatsion strategiyalarigacha bo'lgan uslublar uzluksizligi sifatida ko'rish mumkinligini taxmin qiladi. Bu ikki yondashuvning farqi shundaki, adapterning vazifasi takomillashtirish, innovatorniki esa ishni boshqacha yo'sinda qilishdir. Shuning uchun, birinchisi mavjud paradigma doirasida g'oyalarni ishlab chiqaradi, innovatorlar esa o'rnatilgan paradigmalarga qarshi chiqadigan g'oyalarga intiladi [12].

Kreativlikni rivojlantirish haqida gapirganda, tadqiqotchilar ko'pincha shaxsning kreativ salohiyatini ochishga qaratilgan yondosh muammoga murojaat qilishadi. Salohiyat deganda "ma'lum sharoitlarda o'zini namoyon qila oladigan yashirin imkoniyat, qobiliyat" tushuniladi. Bu holda "salohiyat" tushunchasi mavjud va safarbar qilinishi mumkin bo'lgan, muammoni hal qilish, aniq maqsadga erishish yo'lida foydalaniladigan vosita, usul, zaxira, manba, imkoniyat va sharoit sifatida ta'riflangan.

Yuqori keltirilgan fikrlardan kelib chiqib aytish mumkinki, kreativlik – bu muammoni hal etish, innovatsion, avval mavjud bo'lmagan eng maqbul usullarda maqsadga erishish yo'lida qo'llanilishi va yo'naltirilishi mumkin bo'lgan g'oyalar va imkoniyatlarning manbai ekanligini anglash mumkin. Kreativ shaxs – bu o'zi uchun doimo yangi rivojlanish yo'nalishlarini qidiradigan, yangi kuzatishlar olib boradigan, yangi taxminlarni ilgari suradigan va yangi bilimlarni taklif qiladigan odam.

Polshadagi o'qituvchilar va psixologlar kreativlikni rivojlantirish bo'yicha o'z tajribalarini to'plagan. Bu yerda kreativ kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ishlar faqat maktabdan tashqari va faqat nodavlat ta'lim muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Bugungi kunda ko'plab tajribalar amalga oshirilib, ular doirasida ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga o'quvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishni ko'zda tutuvchi mashg'ulotlarni tadbiq etish yuzasidan ishlar olib borilmoqda. Shu sababli oliy o'quv yurtlari (masalan, Varshava kasb-hunar ta'limi akademiyasi) professor-o'qituvchilarni individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish orqali o'quvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirishda faol ishtirok etish uchun maxsus tayyorlay boshlagan. Pedagoglarni

tayyorlash dasturi kreativlikni rag'batlantirish va ularning samaradorligini oshirish usullarini ishlab chiqish, kreativ shaxslarni qabul qilish, kreativ tasavvur va individuallikni rivojlantirish, kreativ muhitni yaratish, intuitsiya, kreativ salohiyatning har xil turlari va muvaffaqiyat tuyg'usini rivojlantirish kabi muammolarni hal etishga qaratilgan [13].

Buyuk Britaniya vakillari (Pilar Matud, M.Rodrigues, C.Grande, J.Gender) ham kreativlikni rivojlantirish muammosiga alohida e'tibor qaratadi. Ular jismoniy tarbiya fani o'quv dasturiga kiritilgan kreativ raqs orqali o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usulidan foydalanishgan. Bu g'oya tarafdorlari kreativ raqsni nafaqat harakatchanlik yoki estetik hissiyotlarni rivojlantirish salohiyatining mavjudligi, balki o'quvchilarning o'z-o'zini anglashini yaxshilash vositasi va yaxlit o'quv dasturining noyob tarkibiy qismi sifatida ham ko'rishadi. O'qituvchilar bunday raqsning o'quvchilar kreativ faolligiga ta'sirining ijobiy dinamikasini qayd etadilar. Psixologik va pedagogik xorijiy tadqiqotlarning retrospektiv tahlili bo'lajak pedagog kreativ shaxsiyatining quyidagi xususiyatlarini aniqlashga imkon berdi:

- mustaqillik va divergent xulq-atvorga moyillik –kreativ shaxslar uchun ko'pincha umume'tirof qilinganlarga to'g'ri kelmaydigan o'z prinsiplari va xulq-atvor standartlari;

- fikrlashning moslashuvchanligi va yangi narsalarga ochiqlik muhim ahamiyatga ega. Stereotiplar kreativ fikrlashga xalaqit beradi. Narsalarning odatiy ko'rinishidan voz kechish qobiliyati, muammoni nostandart nuqtayi nazardan ko'rib chiqish istagi innovatsion yechimlarni topishning to'g'ri yo'lidir;

- o'zini namoyon qilishga motivatsiya, o'zini namoyon qilish istagi va kreativlikka bo'lgan qobiliyat – dizayndagi kreativlik o'zini namoyon qilmaslik va muammoni hal qilishda individual qarashsiz mavjud bo'la olmaydi;

- muammolarni aniqlash, shakllantirish va hal qilish qobiliyati – shaxs tomonidan yaratilgan mahsulot yoki hal qilinayotgan yechimning estetik jihatlari, birinchi navbatda, foydaliligi bilan muhim hisoblanadi.

XULOSA

Xullas jahon ta'lim tizimida kreativlikni rivojlantirish muammolarini retrospektiv tahlil qilish bir qator asosiy yo'nalishlarni ajratish imkonini berdi:

- zamonaviy jamiyat rivojlanishining muhim sharti sifatida kreativlikni rivojlantirish muammosini davlat darajasida e'tirof etish;

- kreativlikni rivojlantirish muammosining madaniy va ijtimoiy shartlari mavjudligini anglab yetish;

- shaxsning kreativ salohiyatini rivojlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish va ularni ta'lim jarayoniga joriy etish imkonini beruvchi zamonaviy usul va shakllarni ishlab chiqish;

- kreativlik jarayonining to'la huquqli ishtirokchisi sifatida o'qituvchining malakali kasbiy pozitsiyasini shakllantirish.

Yuqoridagi xulosadan anglanadiki, bo'lajak pedagoglarni kreativlik kompetentligini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. В.В.Ермилова, Моделирование и художественное оформление одежды В.В.Ермилова, Д.Ю.Ермилова. — М.: Мастерство, Академия; Высшая школа, 2000. – 210 с.

2. L.Ackoff, E.Vergara Creativity in problem solving and planning: a review. – European Journal of operational research, 2001, 7(1), p. 1-13.

3. В.А.Беликов, Образование. Деятельност. Личност В.А.Беликов. – М.: Академия Естествознания, 2010. – 310 с.

4. D.Ozcan Contributions of English teachers' behaviours on students' creative thinking abilities *Procedia Social and Behavioral Sciences*. 2010. Vol. 2, is. 2. P. 585-585.
5. К.Роджерс, Взгляд на психотерапию. Становление человека К.Роджерс. – М., 1994. – 230с.
6. E.Torrance The nature of creativity as manifest in the testing The nature of creativity. Cambrige, 2001. 45 с.
7. Е.В.Бондаревская, Теория и практика личностно-ориентированного образования Е.В. Бондаревская. - Ростов-на-Дону: Изд-во РосГУ , 2000. –352 с.
8. В.Н.Дружинин, Психология общих способностей / В.Н. Дружинин.- СПб.: Питер, 2000. – 34 с.
9. J.Plucker, R.Beghetto Why creativity is domain general, why it looks domain specific, and why the distinction does not matter Who is creative? Washington, D.C.: American Psychological Association, 2010. P. 153-167.
10. T.Lubart Creativity across cultures *Handbook of creativity*. N.Y.: Cambridge University Press, 2001. P. 339-350.
11. D.Leonard, W.Swap Forstering creativity: expert solutions to everyday challenge. Harvard University Press, 2010. P. 42-46.
12. M.Kirton Adaptation-Innovation Inventory feedback booklet. Berkhamsted, UK : Occupation Research Center, 2003. P. 32-35.
13. M.Karwowski, J.Gralewski, I.Lebuda Creative teaching of creativity teachers: Polish perspective *Thinking Skills and Creativity*. 2007. Vol. 2. P. 57-61.